

Shukur Xolmirzayev hayoti va ijodini o'rganish

Xudayberganov Ma'ruf Olimkulovich

Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev ijodiga oid ma'lumotlar, asarlari, hikoyalariga, ijodiy merosiga to'xtalib o'tildi. Zamondoshlarining uning ijodi haqidagi fikrlari, adabiyotdagi o'rni, ijodining o'rganilishi haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: Shukur Xolmirzayev, baadiyat, janr, shaxs, nasr

Abstract. In this article, information about Shukur Kholmirzayev's work, works, stories, and creative heritage were discussed. The opinions of his contemporaries about his work, his place in literature, and the study of his work are discussed.

Key words: Shukur Kholmirzayev, literature, genre, personality, prose

Kirish. Shukur Xolmirzayev XX asr o'zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan taniqli yozuvchi. U o'zining yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan betakror nasri bilan o'zbek xalqi ma'naviyatining yuksalishida o'ziga xos o'ringa ega. Shukur Xolmirzayev o'n sakkiz yoshida adabiyotimiz olamiga shahdamodimlar bilan kirib kelgan yozuvchilarimidan biri hisoblanadi. Yozuvchining ilk ijodiy asari hikoya janri bilan bevosita bog'liq. Har qanday adabiy asar tahlili haqida gap borar ekan, adabiyotdan tashqari o'sha adabiyotni yaratgan yozuvchi shaxsini ham e'tibordan soqit qilmasdan o'rganishga chorlaydi. Yozuvchi hayotiy jarayonlarni hikoyalarida yoshlik va talabalik yillarining o'ziga xos romantikasi sifatida ifodalagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, yozuvchi tug'ilib o'sgan Boysun tumanida yashovchi turfa tabiatli kishilar hayoti, jamiyatda va ular ruhiy olamida kechgan kurash va o'zgarishlar o'zining badiiy talqinini topgan.

Asosiy qism. O'zbek adabiyotida realistik nasr namunalari paydo bo'lganidan so'ng bu narsa mamlakatning chekka hududlaridan biri bo'lgan Surxondaryoda ham asta-sekin nasrda ijod qiladigan ijodkorlar paydo bo'la boshladi. Surxon nasrinining vakillari haqida so'z yuritganda ularning yoshiga emas, ijodga ilk qadami, milliy adabiyotimizda tutgan o'rniga qarab ketma-ketlikda so'z yuritishni lozim deb topdik. Shu nuqtayi nazardan qaraganda ilk namoyanda sifatida Shukur Xolmirzayev haqida gapishtir o'rinci bo'ladi, nazarimizda. Surxondaryolik ijodkorlar orasida ilk nosirlardan biri sifatida o'zbek adabiyotida yuqori pog'onalarini zabit etgan Shukur Xolmirzayev ijodining o'ziga xosligi, tasvir va ifoda usulining o'zgachaligi bilan kitobxonlar qalbidan joy egalladi. O'zbekadabiyotida Abdulla Qahhordan so'ng o'ziga xos hikoyachilik maktabiga asos solgan adib O'zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti, "Mehnat shuhrati" ordeni kabi yuksak

mukofotlarga loyiq ko‘rilganligi ham uning ijodi chin ma’noda e’tirofga loyiq ekanligining dalilidir. Shukur Xolmirzayev o‘zining har bir asarida boshqalarga xos bo‘limgan detallar va boshqa elementlardan foydalanganini bilan farq qiladi. Uning asarlarda tabiat, hayvonot va nabotot olam yuqori darajada mohirlik bilan foydalanganini ko‘rshimiz mumkun

Xolmirzayev she’riyati o‘zbek madaniy an’analari bilan chuqur ildiz otgan bo‘lsa-da, u boshqa madaniyatlar va adabiy oqimlardan ham ilhom olgan. U rus, Yevropa va Sharq adabiyotining ishtiyocoq bilan o‘qigan va o‘z ijodiga modernizm va syurrealizm unsurlarini singdirgan.

Shukur Xolmirzayev ijodi hozirgi zamon o‘zbek adabiyotining yorqin va mazmundor sahifalaridan birini tashkil etadi. Ko‘p qirrali iste’dod sohibi Sh.Xolmirzayev adabiyotning turli janrlarida rang-barang hikoyalari, publisistik maqolalari, tarixiy esselari, realistik qissalari-yu ajoyib romanlari bilan adabiyotimiz tarixida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Sh.Xolmirzayev yozuvchilar orasidan birinchilardan bo‘lib o‘zbek xalqi tarixinining „bosmachilik harakati” deb atalgan davrini o‘rgana boshladi. Ijodkor faoliyati haqida o‘zbek adabiyotshunoslari turli fikrlar bildirgan. Jumladan, tanqidchi Umarali Normatov “Zaminda yashaymiz, zaminni o‘ylaymiz” maqolasida Sh.Xolmirzayev hikoyeriga xos mazkur xususiyat haqida shunday deydi: „Inson va tabiat munosabati Sh.Xolmirzayev hikoyerining yetakchi leymotiviga aylanib qoldi. Shunisi xarakterliki, yozuvchining so‘nggi yillarda yaratgan deyarli barcha hikoyalari shu mavzu doirasida atrofida aylansa-da, ular bir-birini takrorlanamaydi, har gal muallif masalining yangi qirrasini kashf etadi, yangi xarakter yaratadi, xarakter qalbining yangi tomonini ochadi....” Adibning 1958-yili Q.Qulniyozov Boysun tuman gazetasida „Xatarli so‘qmoqda” nomli birinchi hikoyasi bosilib chiqadi. Adabiyotshunos Matyoqub Qo‘shtonov „Doim izlanishda” maqolasida Sh.Xolmirzayevning yozuvchilik iste’dodi birinchi hikoyasidayoq namoyon bo‘lganligini qayd etib yozadi: „Bolalik, o‘smirlik paytlarida hayotdan olgan tajribasi asar yozish uchun kamlik qilar, hayot taassurotlari esa hali yetarli hazm bo‘limgan edi. Shu sababdan bu hikoya mavhumiyatlari, obrazini tasvirlashda, xususan, ularga individual bo‘yoq berishga noaniqliklar bor edi. Lekin yosh muallifning kelajagidan darak beradigan badiiy parchalar ham yo‘q emas edi unda. Agar o‘sha vaqtarda yosh muallifning bu hikoyasini o‘qib ko‘rgan gazetxonlardan birortasi „shu yigitdan yozuvchi chiqadi” deb bashorat qilgan bo‘lsa, xato qilmaydi.

1953-1969-yillarda yaratilgan dastlabki ijod namunalariga „Notanish odam”, „Nimadir yo‘q bo‘ldi”, „Olis yulduzlar ostida”, „Sog‘inch”, „Ko‘kboy”, „Yovvoyi gul”, „Kechagi kun – kecha” kabi hikoyerlar kirib, bu asarlar orqali o‘z yo‘li va uslubi

shakllanayotganidan darak berdi. Ushbu hikoyalar o‘zbek adabiyotida mutlaqo yangi bir ovoz paydo bo‘lganiga hujjat ediki, o‘sha paytda bu asarlar nafaqat adabiyotshunosu mutaxassislar e’tiborini, balki o‘quvchilarni ham o‘ziga rom etdi. Sh.Xolmirzayev ijodida ko‘tarilish, ya’ni uning professional hikoyanavis sifatida dovrug‘ qozonishi 1970-yildan boshlangan. Adib 1970-1990-yillari „Hayot abadiy”, „Og‘ir tosh ko‘chsa”, „Ot egasi”, „Boychechak ochildi”, „Jarga uchgan odam”, „Kulgan bilan kuldirgan”, „O‘zbekning soddasi”, „Biz kech qolib yuramiz”, „Ora yo‘l”, „Arpali qishlog‘ida”, „Keksa g‘ijjakchi”, „Farzand”, „Bahor o‘tdi”, „Qariya”, „Odam”, „Podachi”, „Shudring tushgan bedazor”, „Cho‘loq turna”, „Olam tortilish qonuni”, „Kimsasiz hovli”, „Bodom qishda gullaydi”, „Tabassum”, „Omon ovchining o‘limi”, „Yashil „Niva””, „Haykal”, „O‘zbek xarakteri”, „Hukumat”, „Qadimda bo‘lgan ekan” kabi go‘zal badiiy durdonalar yaratdi.

Xulosa. Adib asarlari qahramonlari aksari uning o‘zi tug‘ilib o‘sgan tuproq – Surxon diyorining mehnatkashlaridir. Asar voqealari sodir bo‘ladigan manzil ham ko‘pincha shu voha bo‘ladi. Shu voha qahramonlari timsoli misolida adib o‘zbek xalqining, o‘zbek tuprog‘ining o‘ziga xosliklarini tajassum etadi. Yozuvchi asar qahramonlarini oqlamaydi ham, qoramaydi ham. Asosiy e’tiborni ularning qalbi, ma’naviyati, do’stlarga, yangi hayotga, o‘zgarishlarga munosabatini ko‘rsatishga qaratadi va hukm chiqarishni o‘ziga qoldiradi. Adib asarlarining g‘oyalari bir-birini to‘ldirib boradi, tasvirlangan qahramonlar harakatidan, tabiatidan chiqarilgan xulosalar bir-birini yanada boyitadi, milliy o‘zligimizning turli qirralarini alohida xarakterlar orqali tasvirlab, xalq qiyofasidagi yaxlit qiyofaning turli jihatlarini ochib beradi. Yozuvchi asarlarintasvirida tirikchilik qiyinchiliklari bilangina o‘ralashib qolmaydi, ma’naviyat masalalariga ham alohida e’tiborni qaratadi. Zamon talotumlari ma’naviyatimiz mustahkamligi va mustaqilligida jiddiy salbiy iz qoldirayotganiga ishora qiladi. Uning hikoyalar turli shaklda keladigan noverbal shakllarni ko‘rshimiz va hikoyalarda noverbal sotsial birliklar orqali jamiyatdagi holatlarni ochib bergenligini guvohi bo‘lamiz. Xulosa qilib aytganda, badiiy asar tilida barcha nutq uslublari elementlari o‘z aksini topgan bo‘ladi. Uni tadqiq qilish har biryozuvchi yoki shoirga xos uslub manerasini aniqlashga yordam beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar.

1. Shaxnoza Sultonqulova "SHukur Xolmirzayev ijodida detalning o‘rnii"
2. Mirvaliev S. O‘zbek adiblari. -T.: „Yozuvchi“, 2000.
3. Karimov N. va b. q. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. -T.: „O‘qituvchi“, 1999.
4. Q. Yo‘ldoshev, B. Qosimov. Adabiyot (7-sinf darsligi). -T.: „O‘qituvchi“, 2000.